



## **XALQ DEPUTATLARI QASHQADARYO VILOYAT KENGASHI Q A R O R I**

2022 - yil 8 - aprel

VI-44-70-4-0-K/22

Qashqadaryo viloyati hokimligi

### **Xalq deputatlari viloyat Kengashi deputatligiga bo'shab qolgan deputatlik o'rinlariga saylov o'tkazish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Saylov Kodeksining 93-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari viloyat Kengashi

### **QAROR QILADI:**

1. Xalq deputatlari viloyat Kengashining 24-Denov, 51-Namaton va 53-Qutchi saylov okruglari deputatligiga bo'shab qolgan o'rinlarga saylovlar 2022-yil 15-may, yakshanba kuni o'tkazilishi belgilansin.

2. Belgilab qo'yilsinki, saylovni o'tkazish bilan bog'liq barcha tadbirlar viloyat saylov komissiyasi, okrug va uchastka saylov komissiyalari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksiga muvofiq ravishda amalga oshiriladi.

3. Mazkur qaror viloyat hokimligining rasmiy veb saytida e'lon qilinsin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha doimiy komissiyasi (R.Raupov) hamda viloyat hokimligi tashkiliy-kadrlar guruhi (S.Donayev)lar zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya Raisi



Ravshanov O. P.